

## NAZARIY VA AMALIY ADABIYOT MASALALARI

MAQSUD SHAYXZODA ADABIY MEROSINING  
TIL XUSUSIYATLARI

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/WAOW2432

Gulsanam Norova<sup>1</sup>**Abstrakt**

Maqolada ozarbayjon va o'zbek adabiyotining yorqin namoyondasi bo'lgan Maqsud Shayxzoda adabiy merosi va asarlarining til xususiyatlari o'rganilgan. Shuningdek, ushbu maqola orqali bugungi kunda Maqsud Shayxzoda ijodining tilshunoslikda o'rganilmagan jihatlari ham tahlil qilingan. Bu orqali ilmiy ish olib bormoqchi bo'lgan yosh tadqiqotchilarga ham yo'nalish berilgan. Maqoladan asosiy maqsad har ikki turkiy qardosh xalqlarning uyg'unligini namoyon etish, ijodkorning ijodiy merosi orqali muhim jihatlari ko'rsatishdan iboratdir. Bu orqali o'zbek tilshunosligida yana yangi ilmiy tadqiqotlar orib borilib, tilshunosligimiz yanada boyib borishi, ayni haqiqat. Zero, Maqsud Shayxzoda o'z ijodi bilan o'zbek adabiyoti va tilshunosligiga beminnat hissa qo'shgan.

**Kalit so'zlar:** *o'zbek va ozarbayjon adabiyoti, Oqtosh shahri, dramaturg, drama, "O'n she'r", "Undoshlarim", "Uchinchi kitob", she'riy to'plamlar, "Mirzo Ulug'bek" dramasi, "Jaloliddin Manguberdi" dramasi, Vatan ozodligi, mustaqillik, vatanparvarlik, tarixiy obraz, to'qima obraz, bosqinchi, valiahd, hokim, poetik asar, teranlik.*

**KIRISH**

Tafakkur va fikrlashlarimiz milliy g'oya asosida takomillashayotgan bir davrda o'z davri ijodkorlarining san'at hisoblangan badiiy asarlari tilini endilikda tadqiq etish ishlari yangicha uslubda boshlandi. Maqsud Shayxzoda ijodiga munosabat, asarlari mazmuni va mohiyatini tushunish har bir asarning o'ziga xos serjilo, purma'no, emotsionallikka boy jihatlari kabi qirralarini ochishga asosdir.

---

<sup>1</sup>Gulsanam Maxsutovna Norova – Navoiy davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi qoshidagi Nasimi nomidagi Tilchilik Instituti doktoranti

**E-manzil:** gulsanam81ndpi@gmail.uz

**ORCID:** 0009-0008-4789-057X

**Иқтибос учун:** Norova, G. 2023. «Maqsud Shayxzoda adabiy merosining til xususiyatlari». O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 1(5): 138-146. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/WAOW2432.

Ozarbayjon va O'zbekistonning mohir so'z san'atkori Maqsud Shayxzoda merosini uning nazmiy va nasriy asarlari kabi yetuk mutafakkirlar hayoti hamda ijodi ularning ilmiy, tarixiy, falsafiy, diniy, axloqiy qarashlari, g'oyalariga ilmiy munosabati kabi masalalar o'rganilishi nihoyatda zarur ekanligiga ishoratdir.

Ona tilini puxta o'rganish g'oyaviy-tarbiyaviy ishlar orasida eng asosiy masalalardan hisoblanadi. O'z navbatida milliy tilni chuqur o'zlashtirish, uning adabiy manbalari tilini maxsus tadqiq etish tilshunoslik fanining asosiy vazifalaridan biridir. Shu ma'noda turli davrlarda yaratilgan yetuk ijodkorlar asarlari tilini milliy til manbayi sifatida chuqur o'rganish, unda qo'llangan har bir so'zning bosh lug'aviy va ko'chma, ya'ni matniy ma'nolarini aniqlash, so'zning eskirishi, fonetik, grammatik, leksik arxaiklashishi, davrlar o'tishi bilan ma'noning kengayishi va torayishi, yangi ma'no kasb etishi, asar ruhiyatiga xos ijodkor ichki tuyg'ularini tushunish kabi til bilimi bilan bog'liq masalalarni ilmiy asoslash muhim tadqiqotlardan biridir.

### ASOSIY QISM

Ijodkorning turli mavzuga bag'ishlangan badiiy asarlarida badiiylikni oshirish, shu bilan birga o'quvchida real tasviriy holatni ishontira bilish, emotsional-bo'yoqdor so'zlardan foydalanish, turli sohalarga oid so'z va atamalarni soha mutaxassisi darajasidan ham ortiq o'ziga xos uslubda adabiy til normasi sifatida tasvirlay olish so'z san'atkoridan katta mahorat talab etadi. Maqsud Shayxzodaning badiiy asarlarida hayotning turli jabhalariga taalluqli bo'lgan so'z va atamalar xos o'z badiiy ifodasini topgan. Bu esa, albatta, so'z san'atkorining dunyoqarashi bilan bog'liq kuzatuvchanlik, turli sohalarga bo'lgan qiziquvchanlik, ayniqsa, gumanistik g'oyalar bilan yo'g'rilgan ijtimoiy, tabiiy sohalarga nisbatan chuqur mulohazakorligidan darak beradi.

Aslida qondosh ozarbayjon naslidan bo'lib, keyinchalik o'zbek xalqining chinakam sevimli shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, zabardast olimi sifatida dong taratgan Maqsud Shayxzoda 1908-yili Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tug'ildi. Otasi Ma'sumbek el-u yurtida katta obro'ga ega shifokor edi.

U san'at va adabiyotni sevar, tarix va falsafaga qiziqardi, Oqtosh ziyolilari bilan turli masalalarda suhbatlashardi. Yosh Maqsud Nizomiy va Firdavsiy, Navoiy va Fuzuliy, Pushkin va Shekspir kabi buyuklar nomini ilk daf'a ana shu gurunlarda eshitadi hamda bu muhit unga adabiyotga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi.

Maqsud Shayxzoda Oqtoshda ibtidoiy maktabni bitirgach,

1921-yili Boku dorilmualliminiga o'qishga kiradi va uni tugatgach Dog'istonning Darband, Bo'ynoq shaharlarida muallimlik qilgan. U 1926-yili Adhem Fayziyning "Milliy firqa" tashkilotiga a'zo bo'lib, musovotchilar harakatida faol qatnashgani uchun 1928-yilda hibsga olinib, Toshkentga surgun qilingan. Umrining oxiriga qadar shu yerda yashab, ijod qilgan. Albatta, sho'ro hukumati Shayxzodani O'zbekistonda ham ta'qiblar va tahqirlardan benasib qoldirgani yo'q. Muhimi shundaki, Shayxzoda "tole' doim erkalamaganiga" qaramay, umrining oxiriga qadar o'zbek xalqining sadoqatli farzandi sifatida faoliyat ko'rsatdi va O'zbekiston uning ikkinchi vatani bo'lib qoldi.

Shayxzoda Toshkentga kelgach, avval Narimonov nomidagi texnikumda dars beradi, keyin "Sharq haqiqati", "Qizil O'zbekiston", "Yosh leninchi" gazetalarida ishlaydi. 1929-yili yosh shoirning o'zbek tilidagi dastlabki she'ri "Sharq haqiqati" gazetasi sahifalarida bosilib chiqadi. Oradan ko'p o'tmay, Shayxzodaning birinchi to'plami "O'n she'r", keyinroq "Undoshlarim", "Uchinchi kitob", "Jumhuriyat" kabi to'plamlari nashr etiladi.

### **METODLAR TAHLILI**

Maqsud Shayxzoda "xalqimizning mehnat qahramonligi, kurash va jang, ozodlik va do'stlik, baxt va alam, yurtning go'zal manzaralari va insonning ma'naviy jamoli mening qalamimga oshno, dilimga mazmun bo'lib keldi" deb ta'kidlagan edi. Shoirning bu fazilatlarini, eng avvalo, hayotdagi, voqelikdagi va odamlarimizning ruhiy olamidagi o'zgarishlar, holatlarni ifodalashga qodir yangi, betakror obrazlarida namoyon bo'ldi. Shoirning o'zi "Inson umri cheklangan muhlatli daftar", demak bu daftarni foydali, ezgu ishlar – "yozuvlar" bilan to'ldirish lozim deydi. "Raqamlar" she'rida esa shunday satrlar bor: "Men na munajjimman va na hisobdon va lekin ko'raman sonlar mag'zida osmoncha ma'nolar, yurtni obodon"... Maqsud Shayxzoda ijodiy balog'atidan dalolat beruvchi asarlardan biri "Toshkentnoma" dostonidir. Adabiy jamoatchilik o'z vaqtida bu dostonni shoirning adabiyotimizning yirik ijodiy muvaffaqiyati sifatida baholadi. Chindan ham, "Toshkentnoma" Shayxzoda dostonlari ichida eng barkamoli bo'lib, unda shoir shaxsiyatining o'ziga xos qirralari ancha yorqin namoyon bo'lgan.

Shayxzoda umrining so'ngida yozishga kirishgan, lekin tugatib ulgurmagan "Beruniy" dramasi hisobga olmaganda ham, uning "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" dramalari allaqachon xalqimizning badiiy mulkiga aylanib qoldi.

Shuni ta'kidlash joizki, Maqsud Shayxzoda asarlari tili leksi-

kasi hanuzgacha o'rganilmagan. XX asr 30-yillar o'zbek adabiy tili xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan yozuvchi nasriy asarlari leksikasini o'rganish o'zbek tili taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari-ni yoritish uchun ahamiyatlidir. So'z san'atkorining nasriy asarlari-da falsafiy, axloqiy, ta'limiy mushohadalar yoritilgani bois, xalqning o'sha muhitdagi dunyoqarashi, e'tiqodi, milliy urf-odatlar, tafak-kuri haqida ma'lumot beruvchi manba hamdir. Yozuvchi asarlarida o'zbek adabiy tilining to'liq shakllanish jarayonlarini aks ettiruvchi leksik birliklar, yozuvchi tomonidan hosil qilingan o'ziga xos emot-sional-bo'yoqdorliklar, ayniqsa, qadimgi turkiy eski o'zbek tiliga xos til birliklarining faol ishlatilgani ko'rinadi. Uning nasriy asarlari tili leksikasini maxsus o'rganishda quyidagi masalalarni yoritish ma-qsadga muvofiq:

1. nasriy asar tili haqida umumiy ma'lumot berish;
2. badiiy asar tili leksikasini o'rganishning o'ziga xos tam-oyillarini belgilash;
3. so'z san'atkorining o'ziga xos so'z qo'llash uslubini aniqlash, undagi jonli xalq tiliga xos xususiyatlarni to-pish;
4. nasriy asarlardagi bo'yoqdor til birliklarini tahlil etish;
5. asar tilidagi eskirgan, arxaiklashgan so'zlar semantik taraqqiyotini aniqlash;
6. asar leksikasini tematik guruhlarga ajratishdan iborat.

Maqsud Shayxzoda nasriy asarlari tili leksikasi hanuzgacha maxsus o'rganilmagan.

El ardog'idagi yozuvchilar asarlari tilini o'rganmay turib, shu yozuvchilar mansub bo'lgan xalqning tarixini mukammal bilib bo'lmaydi. Masalan, Rossiya tarixini Pushkin asarlari tilisiz, Angliya tarixini Shekspir, Bayron asarlari tili tahlilisiz tushunarli bo'lmaydi. O'zbek xalqining tarixini chuqur bilish esa Navoiy, Bobur va bosh-qa buyuk ijodkorlar tilini o'rganish bilan bog'liqdir. O'zbek adabiy tili o'tmishi, hozirgi holati, ijodkor yashagan davr tilining umumiy yo'nalishi va rivojlanish qonuniyatlarini belgilashda, tilda ro'y be-rayotgan jarayonlarni o'zida aks ettirgan mohir so'z san'atkori Ma-qsud Shayxzoda asarlaridagi o'zig axoslik, Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Kahhor asarlari tili kabi milliy adabiyotimiz uchun kerak-li so'zlarni tanlay bilishda konkret tasvirdan keng umumiy planda foydalanishda namoyon bo'lgan. U o'z asarlarida jozibador manzara yaratish maqsadida so'zning hissiy kuchini oshirib, kishida his-ha-yajon uyg'otib hayratda qoldiradigan real hayotiy va jonli lavhalar tasvirida namoyon etadi.

Maqsud Shayxzoda prozasi o'tgan asrning 30-yillaridan e'tiboran milliy til elementlaridan mahorat bilan foydalanishga badiiy tasvirni individual bo'yoqlar asosida hissiyotni konkret detallar bilan berishga erisha olgan edi. Uning bu davrlarda yaratilgan "Meros", "Tuproq va haq", "Ovchi qissasi", "Iskandar Zulqarnayn", "O'n birlar", "Ahmadjonning hikmatlari", "Uchinchi o'g'il", "Nurmat otaning tushi" singari liro-epik asarlaridagi obrazlilik, real tasviriylik o'quvchini o'ziga tortadi, sehrlaydi. Ulkan yozuvchi o'z asarlarida har bir so'zni, iborani o'rinli qo'llagani uchun ularda voqea tafsiloti, qahramon xatti-harakati, uning ismi-sharfi, joy nomi, manzara tasvirlarida aniqlik bo'lishi bilan birga chuqur badiiylik ustunlik qilgan. Bunda barcha uchun umumiy, kundalik hayotda zarur narsa va hodisa tafsilotlarini anglatuvchi so'zlar xalq jonli tili asosida badiiy ifodalangan. O'zbek tilining lug'at tarkibi nihoyatda boydir. Shuning uchun ijodkorlar o'zbek tili leksik boyligidan kerakli so'zlarni erkin tanlab olish imkoniyatiga egadirlar.

Maqsud Shayxzoda nasriy asarlari tili leksikasining tarixiy-etimologik qatlamlari jihatdan kuzatilsa, dastlab genetik jihatdan so'zlar 2 guruhga – o'z va o'zlashgan qatlamga bo'linadi. Til lug'at tarkibini tarixiy-etimologik nuqtai nazardan tekshirganda, avvalo tarixan kelib chiqishi nuqtai nazaridan o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan so'zlar belgilab olinadi. Bunday so'zlar ijodkor asarlari leksikasining asosini tashkil etgan. Yozuvchi asarida sof turkiy so'zlarni o'rinli ishlatgani - tilning keng imkoniyatlaridan unumli foydalanganligidan dalolatdir. Shoir har bir so'zni qo'llashda asar matni ruhidan kelib chiqib badiiy tasvir vositasi sifatida adabiy tilning leksik imkoniyatlari hisoblangan omonim, sinonim so'zlardan mahorat bilan foydalangan. Badiiy asar leksikasining ko'p qirraligi yozuvchining so'z boyligini namoyon qiluvchi yorqin misollardan biridir.

Maqsud Shayxzoda nasriy asarlari leksikasini mavzuiy guruhlariga bo'lish shuni ko'rsatadiki, ijodkor o'z asarlarida turli sohalarga oid so'zlardan keng foydalangan. Badiiy asarning tematik jihatdan rang-barangligini ko'rsatish maqsadida ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Atoqli otlar. Kishi ismlari.
2. Urug', etnik nomlar.
3. Qavm-qarindoshlik terminlari.
4. Inson a'zolari nomlari.
5. Kiyim- kichik atamallari.
6. Joy nomlari.
7. Daryolar nomi.

8. Son-sanoq, hajm, vaqt bilan bog'liq masofa, tomon, og'irlik, o'lchovli, birliklarini bildiruvchi so'zlar.
9. Koinot va tabiatga oid atamalar.
10. Inson holati va kayfiyati bilan bog'liq so'zlar.
11. Mahkama, unvon, daraja va huquqqa oid so'zlar.

Shayxzodaning ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan "Jaloliddin Manguberdi" (1944) hamda "Mirzo Ulug'bek" (1961) dramalarida bu jihatlarni ko'rish mumkin. Xususan, xalqni dushmanga qarshi birlashtirish va yurt himoyasini uyushtirish yo'lidagi Jaloliddin ko'rsatgan jonbozliklarini saroydagi Badriddin singari munofiq kimsalar va ular ta'sirida dastlab otasi Xorazmshoh ham to'g'ri tushunmaydi. Shunda Jaloliddin "Menga koshonadan chodir yaxshiroq" deb chiqadi va yurt himoyasi uchun qo'shin berishlarini talab qiladi.

Dramaturg Chingizxon obrazini mahorat bilan yaratadi. Shuni muhimki, u bu obrazni qora bo'yoqlarga chaplab tashlamaydi. Tarixiy haqiqatga rioya qilgan holda, bu shaxsning Jaloliddin va Temur Malik qahramonligi jasoratiga tan berganligini ifodalashni unutmagani holda, uning tabiatidagi bosqinchilik, yovuzlikni, pokiza insoniy tuyg'ularni oyoq osti qilish singari xususiyatlarni to'laonli badiiy gavdalandiradi:

*Adolat yo insof? Nima degan u?*

*Tupurdim bularga, ming marta tfu!*

Bu fikr uning dunyoqarashini juda aniq ochib bera olganidek, mana bu mulohazalari uning ruhiy dunyosiga bir ochqich bo'la oladi:

*Muhabbat! Bu so'zni kimlar to'qigan?*

*Go'l shoir yozgan-u, tentak o'qigan.*

Yuqoridagi qahramonlar, asosan, tarixiy qahramonlardir. Asarda ular bilan yonma-yon dramada muallif badiiy taxayyulining mahsuli bo'lgan Elbors pahlavon, Yaroqbek, Navkar, No'yon, Tabib chol singari to'qima qahramonlar ham ishtirok etadilar.

"Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" dramasi badiiy jihatdan teran asardir. Asar monolog va dialoglari pishiq ishlangani, har bir qahramon xarakterining ham til boyligini, ham ruhiy dunyosidagi o'ziga xoslikni ifodalay oladigan yo'sinda ekani bilan ajralib turadi. Qahramonlararo konfliktlarda sun'iylik yo'q, ular voqyealarning tabiiy oqimi va xarakterlar kurashidagi maqsadning hayotiyliigi va haqqoniyligidan kelib chiqadi.

## XULOSA

O'zbek adabiy tilining bugungi taraqqiyot darajasi uning tarixiy-tadrijin rivojlanish bosqichlari bilan belgilanadi. O'zbek til-

ininng leksikasi boyishi jarayonini kuzatish badiiy asar tili va uning uslubiy xususiyatlarini diaxronik va sinxronik yo'nalishda o'rganish tilshunosliknig asosiy vazifalaridan biridir. Nasr tili ma'lum darajada nazm tilidan farq qiladi. Nasr tilida ma'lum joy xususiyatlarini aks ettirish jarayonida qahramonlar nutqi orqali dialektal so'zlar kasb-hunarga oid atamalar, jargonlar va shunga o'xshash leksik birliklardan foydalaniladi.

O'zbek tili leksikasini o'rganishda Maqsud Shayxzoda nasriy asarlari o'ziga xos o'ringa ega. Ijodkorning turli mavzuga bag'ishlangan badiiy asarlarida badiiylilikni oshirish, shu bilan birga o'quvchiga real tasviriy holatni ishontira bilish, emotsional bo'yoqdor so'zlardan foydalana bilish o'ziga xos uslubda adabiy til normasi sifatida tasvirlay olish so'z san'atkoridan katta mahorat talab etishi kuzatiladi.

Maqsud Shayxzodani o'qish jarayonida kitobxon shuni anglaydi-ki, qariyb qirq yillik ijodiy faoliyati mobaynida milliy adabiyotimizning she'riyat, dramaturgiya, publitsistika singari sohalarida samarali ijod qilibgina qolmay, adabiyotshunoslik va badiiy tarjima masalalari bilan ham faol shug'ullangan. Akademik Naim Karimov ta'biri bilan aytsek, Maqsud Shayxzoda o'z adabiyotini jahon xalqlari adabiyotlari bilan o'zaro bog'lagan "oltin ko'priklarimizdan biridir.

Maqsud Shayxzoda ozarboyjon farzandi. U garchi O'zbekistonda yashagan bo'lsa-da, o'z tili va millati ravnaqi uchun beminnat xizmat qildi. Turkiy til rivoji uchun o'z asarlari bilan hissa qo'shdi. O'zbek va ozarboyjon xalqining qalbidan chuqur joy olgan yozuvchi, dramaturg, shoir Maqsud Shayxzoda nomi hamda ijodiy merosini kelajak avlod asrab-avaylashi, bu borada qator ilmiy izlanishlar olib borishi, hali o'rganilmagan jihatlarini tahlil va talqin qilishi zarur. Bu mashaqqatli va sharaflı yo'lda men ham Maqsud Shayxzoda ijjidiga bo'lgan mehrimni namoyon etib borayotganimdan mamnunman.

### **Adabiyotlar**

Мақсуд, Шайхзода. 1969. Асарлар. Тошкент.

Зокиров, М., Шайхзода, М. 1969. Адабиёт. Адабий танқидий очерк. Тошкент.

Юсуф, Шомансур. 1972. Шайхзода — бунёдкор шоир. Тошкент.

Ғафуров, И. 1975. Ўртоқ шоир. Мақсуд Шайхзода ижодиёти. Тошкент.

Мақсуд Шайхзода замондошлари хотирасида. 1983. Тошкент.

XX аср ўзбек адабиёти тарихи. 1999. Тошкент.

Шайхзода, Мақсуд. 1956. Атоқли халқ шоири. Тошкент.

Шайхзода, Мақсуд. 2008. Шоир қалби дунёни тинглар (Танланган асарлар) Тошкент, "Ниҳол", 28 б.

Қиличев Э. 1982. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. Тошкент:



Фан.

Ўзбек тили лексикологияси. 1981. Тошкент.

Abdurahmonov G'. 2008. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi: Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik /G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov. T: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, - 528 b.

Порсо, Шамсиев; Иброҳимов, Собиржон. Ғафур Ғулом ва А.С. Пушкин номидаги тил ва адабиёт институти. 1953. Ўзбек Классик Адабиёти Асарлари Учун Қисқача Луғат. Ташкент: Ўзбекистон ССР фанлар академияси нашириёти.

Абдурахмонов, Ғ. 1973. Ўзбек тилининг стилистик нормалари нутқ маданияти масалалари. Тошкент.

## LINGUISTIC FEATURES OF THE LITERARY HERITAGE OF MAQSUD SHAYKHZADEH

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/WAOW2432

Gulsanam Norova<sup>1</sup>

### Abstract

The article examines the literary heritage and language features of the works of Maqsd Shaykhza, a bright example of Azerbaijani and Uzbek literature. This article also analyzes aspects of Maqsd Sheikhzadeh's work that are not studied in linguistics today. Young researchers who want to do scientific work are also guided through this. The main purpose of the article is to demonstrate the harmony of both Turkic brotherly nations, to show the important aspects of the creative heritage of the artist. It is a fact that through this, new scientific researches in Uzbek linguistics will be carried out, and our linguistics will become richer. After all, it is true that Maqsd Shaykhzade made a happy contribution to Uzbek literature and linguistics with his work.

**Key words:** *Uzbek and Azerbaijani literature, Oktosh city, dramatist, drama, Ten Poems, "Consonants", "Third Book", poetry collections, "Mirzo Ulugbek" drama, "Jalaluddin Manguberdi" drama, freedom of the Moth-*

---

<sup>1</sup>Gulsanam Maxsutovna Norova - Senior Lecturer of Navoi State Pedagogical Institute, PhD in philosophy in philological Sciences, doktoranti of Nasimi Institute of linguistics under Azerbaijan National Academy of Sciences

**E-mail:**gulsanam81ndpi@umail.uz

**ORCID:** 0009-0008-4789-057X

**For reference:** Norova, G. 2023. "Linguistic features of the literary heritage of maqsd shaykhzadeh". Uzbekistan: language and culture. Issues of Applied philology. 1(5): 138-146. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/WAOW2432.



*erland, independence, patriotism, historical image, textile image, invader, prince, governor, poetic work, depth.*

### **References**

- Maqsud, Shayxzoda. 1969. Asarlar . Toshkent.
- Zokirov, M., Shayxzoda, M. 1969. Adabiyot. Adabiy tanqidiy ocherk. Toshkent.
- Yusuf, Shomansur. 1972. Shayxzoda — bunyodkor shoir. Toshkent.
- G'afurov, I. 1975. O'rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti. Toshkent.
- Maqsud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida. 1983. Toshkent.
- XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. 1999. Toshkent.
- Shayxzoda, Maqsud. 1956. Atoqli xalq shoiri. Toshkent.
- Shayxzoda, Maqsud. 2008. Shoir qalbi dunyoni tinglar (Tanlangan asarlar) Toshkent, "Nihol", 28 b.
- Qilichev E. 1982. Badiiy tasvirning leksik vositalari. Toshkent: Fan.
- O'zbek tili leksikologiyasi. 1981. Toshkent.
- Abdurahmonov G'. 2008. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi: Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik /G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov.T: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, - 528 b.
- Porso, Shamsiev; Ibrohimov, Sobirjon. G'afur G'ulom va A.S. Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti. 1953. O'zbek Klassik Adabiyoti Asarlari Uchun Qisqacha Lug'at. Tashkent: O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyoti.
- Abdurahmonov, G'. 1973. O'zbek tilining stilistik normalari nutq madaniyati masalalari. Toshkent.